O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60230100.2.01
2021-yil “__”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “__”_____

TANLOV FAN (HIKOYALAR POETIKASI)
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	320000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan dasturi “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasining 2021-yil 25-may 10-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tdi.

Kafedra mudiri **prof.Sh.A.Hasanov**

Fan dasturi fakultet uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (22-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (26-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengashi raisi **prof.A.Pardayev**

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti kengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.

O‘quv ishlari bo’yicha prorektor: **prof.A.S.Soliyev**

Fan/modul kodi *TFT4001*	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 4	ECTS – Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
	Tanlov fan (Hikoyalar poetikasi)	75	75	150

2.

I. Fanning mazmuni

O‘zbek hikoyalari poetikasi fani gumanitar fanlar majmuasiga taalluqli bo‘lib, talabalar uni VII semestrda o‘rganishadi. Fanning asosiy maqsadi talabalarni hikoyachilik tarixi, hikoya janrining spesifik belgilari, hozirgi adabiy jarayon, badiiy asarning tarkibiy qismlari, ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon ruhiyatining asardagi ifodasi kabi ma’lumotlar bilan tanishtirish, ularning hikoyachilik haqidagi bilimlarini oshirish, ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish sanaladi.

Asosiy nazariy qism(ma’ruza mashg‘ulotlari)

1-modul. Fanning umumiy mohiyati

1-mavzu: O‘zbek adabiyotida hikoya janri tarixi (2 soat)

Xalq og‘zaki ijodida dastlabki hikoyalar. Yozma adabiyotda o‘zbek nasrining shakllanishi. N. B. Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy”, A. Navoiy “Xamsa” dostonlari, Xoja “Miftoh ul-odil”, “Gulzor” va boshqa asarlarda nasr tarixi masalasi ko‘rib chiqiladi. XIX asrning 70 yillarida kirib kelgan realistik hikoyachilikka urg‘u beriladi.

2-mavzu. Hikoya janrinig adabiyotshunoslikda o‘rganilishi

Haqida ma’lumot beriladi. Bunda asosan Q. Yo‘ldoshev, U. Normatov, A. Otaboy va boshqa adabiyotshunoslar adabiy-tanqidiy asarlariga murojaat qilinadi. Tahlil va talqin orqali talaba ilmiylik salohiyatini rivojlantirib boradi.

3-mavzu:

Hikoya va novella janri (2 soat)

Novella janr sifatida Evropa adabiyotida yaratilgan bo‘lsada, janr ildizlari Sharq adabiyotida ham yashab kelgan. Novella termini bilan atalmasa-da, Navoiy hikoyatlari bag‘rida o‘zining hozirjavobligi, kutilmagan qarorlar chiqarish bilan latifa janriga mos tushadigan latifaomuz asarlar uchrab turardi. Novella ildizlari shu va boshqa manbalardan o‘rganiladi.

4-mavzu:
A.Qahhorning hikoyachilikdagi mahorati (2 soat)

O‘zbek realistik hikoyachilikda Abdulla Qahhorning o‘rni. Abdulla Qahhor hikoyalarida sujet va kompozitsiya. Muallifning hikoyachilikdagi o‘ziga xosligi. Abdulla Qahhor uslubi. O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga adibning qo‘shgan hissasi. Abdulla Qahhor mahoratini o‘rgangan adabiyotshunos olimlar.

5-Mavzu:
Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi mahorati

Sh. Xolmirzayev A. Qahhordan keyingi mashhur hikoyanavislardan biridir. Uning bir qator hikoyalari zamondoshlari obrazlarini yuksakka ko‘tarish masalalarda ilg‘or hisoblanadi. Uning mustaqilligimiz kurashchisi sifatidagi hikoyalari istiqlol ruhini yoshlar ongiga singdirish bilan ibratlidir

6-Mavzu: Said Ahmad hikoyalarida o‘tmish tasviri

Said Ahmad o‘z davrini va o‘tmishini badiiy tarannum etgan yozuvchilardan uning “Cho‘l hikoyalari” mavzusidagi turkum hikoyalari o‘z davrida ota-bobolarimiz dunyoqarashini o‘stirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan

7-mavzu: Istiqlol davri o‘zbek hikoyachiligi (4 soat)

Istiqlol davri adabiyotiga bir nazar. Mustaqillik bergan ne’mat. Ijod erkinligi. Sariq matbuotning ommaviylashishiga hikoyalarning qo‘shgan hissasi. Hikoyachilikda shakliy o‘zgarishlar. Noan’ananaviy adabiyotning yuzaga kelishi. Modernistik hikoyalar haqida ma’lumot. Nazar Eshonqul va uning o‘zbek hikoyachiligiga olib kirgan yangiliklari.

8-mavzu: Adabiyotimizda modernistik
va falsafiy hikoyalar (2 soat)

Mustaqillik arafasida o‘zbek adabiyotida bo‘lgan shakliy o‘zgarishlar. Modernistik oqimning o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi. Bu tajribadagi dastlabki o‘rinishlar. Nazar Eshonqulning “Maymun etaklagan odam” hikoyasi. An’anaviy va noan’anaviy hikoyalar. X. Do‘stmuhammad va uning falsafiy hikoyalari haqida ma’lumotlar beriladi

9-Mavzu:Hajviy hikoyalar (2 soat)

O‘zbek adabiyotida hajviy hikoyalar o‘rni. Satirik va yumoristik hikoyalar va ularning bir-biridan farqi va o‘xshsh jihatlari. Hajviy hikoyalay yaratishda A. Qahhor, S. Ahmad, O‘.Hoshmov, N. Aminov va boshqa ijodkorlarning o‘rni. Mustaqillik davrida hajviy hikoyalarning ahamiyati.

10-Mavzu: Turkum hikoyalar (2 soat)

O'zbek adabiyotida turkum hikoyalar XX asr boshidan o'rganilib kelinadi. A.Qahhorning , S.Ahmadning bir qator hikoyalari shu yo'nalishda bo'lib, keyingi yillar yoshlar asarlarida ham bu ko'rinish davom ettirildi

11-Mavzu: O'.Hoshimovning "Dehqonning bir kuni", "Dehqonning bir tuni" hikoyalari tahlili (2 soat)

O'zbek adabiyotida realistik hikoyalar haqida ma'lumot beriladi. Janrlar tarixiga e'tibor beriladi. Mazkur janrlarda ijod qilgan mumtoz shoirlar ijodidan namunalar keltiriladi. Shu janrlarda yaratilgan ijod namunalarini tahlil qilish orqali uning adabiyotimizdagi o'rni tushuntiriladi.

12-Mavzu: Hikoyachilikda sujet va kompozitsiya (2 soat)

Asabiyotshunoslikda hikoyalar tahlili jarayoniga to'xtalinadi. Bunda asosan Hikoya va Novellaning farqli o'rinlariga ko'proq e'tibor beriladi. Bir-biriga o'zaro yondosh janr bo'lgan har ikkala janr tafovutlari tahlildan o'tkaziladi.

13-Mavzu: Dedektiv hikoyalar (2 soat)

Dedektiv hikoyalar haqida o'zbek tilida hali ma'lumotlar juda oz. Chunki bu janr adabiyotimizga endigina kirib kelmoqda. Shuning uchun lug'at moqomidagi kitoblardan nazariy o'rganish tavsiya etiladi. So'nggi yillarda e'lon qilingan jahon va o'zbek adabiyotidagi dedektiv hikoyalarni o'qish hamda talabalardan mustaqil fikrlash talab etiladi.

14-Mavzu: XX asr 90- yillar hikoyachiligi xususiyatlari(2 soat)

Mustaqillik davri haqida ma'lumot berish. Mazkur davr hikoyachiligi o'zining bir qancha yangi jihatlari bilan farqlanib turadi. Bu davr ijodkorlarining o'ziga xos uslubini tushuntirish. Yozuvchilarning bir qancha hikoyalarini tahlilga tortish. Asarlaridagi obrazlar tizimiga to'xtaladi. Poetik mahorati yoritiladi.

15-mavzu: She'riy novella va hikoyalar (2 soat)

Adabiyotimizda o'ziga xos bir turkum she'rlar mavjudki, ular o'zida voqeabandlik xususiyatlari bilan o'zga she'riy asarlardan farq qiladi. Ularda yumorning kuchliligi, kutilmagan yechimnig mavjidligi, keskinlikning bosh planga kotarilishi muhim ahamiyat kasb etadi.Voqeaband she'rlardagi shu masalalar izchil o'rganiladi.

16-mavzu: Adabiyotimizda modernistik

va falsafiy hikoyalar (2 soat)

Mustaqillik arafasida o'bek adabiyotida bo'lgan shakliy o'zgarishlar. Modernistik oqimning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi. Bu tjribadagi dastlabki o'rinishlar. Nazar Eshonqulning "Maymun etaklagan odam" hikoyasi. An'anaviy va noan'anaviy hikoyalar. X. Do'stmuhammad va uning falsafiy hikoyalari haqida ma'lumotlar beriladi

17-Mavzu: XX asr jahon adabiyotida hikoyachilik (2 soat)

XX asr har tomonlama fan va madaniyatning rivojlangan davri bo'ldi. Bu davr adbiyotda o'z aks-sadosini baralla ko'rsatdi. Madern adabiyotning yuzaga kelishi, adabiyotda ruhiy kechinmalar ifodasining bosh planga ko'tarilishi kabi masalalar o'rganiladi. Edgor Po, O Genri, P. Merimi, G. D. Mopassan, A. P. Chexov hikoyalari haqida ma'lumot beriladi.

18- mavzu: "Sariq matbuot"da hikoyachilik (2)

Adabiyotimizda yozuvchilar, shoirlar, buyuk shaxslar, ijtimoiy va madaniy sohalarda muhim iz qoldirgan ulug' insonlar ham saviyasiz o'rtamiyona asarlar yozmoqda. Keyingi yillarda ommaviy gazetalar oldi-qochdi, sarguzashttalab, fahsh voqealarni tasvirlamoqda. Ularning oqibatlari mazkur mavzuda jiddiy o'rganiladi.

19-Mavzu:Mumtoz adabiyotda hikoyachilik (2)

Shunday hikoyalar ham borki, ular faqat tabiat va jonli predmetlarga bag'ishlanadi. Bunday hikoyalar majoziy-didaktik hikoyalar deb ataladi. Masalan, itlar, bo'rilar, otlar, sherlar, qushlar kabi insoniyatga qaysi bir jihati bilan o'rnak bo'la oladigan hayvonot yoki parrandalar olamidan obraz tanlanadi. Shunday hikoyalar qatoriga biz Temur Po'latov, O.Otaxon, N.Norqobilov kabi yozuvchilar asarlarini qo'shishimiz mumkin.

20-Mavzu: Hikoyachilik va adabiy tanqid (2 soat)

O'zbek adabiyotida hikoyachilikning o'rganilishi. Hikoyanavis adabiyotshunos olimlar haqida ma'lumot. M. Qo'shjonov, U. Normatov, N. Vladimirova, A. A'zam va boshqa olimlar ijodida hikoyalarning o'ziga xosliklarini ko'rsatilishi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Yangi o'zbek adabiyotida hikoya janri.
2.Abdulla Qahhor mohir hikoyanovis
3. Shukur Xolmirzayev hikoyalari poetikasi
4. O'.Hoshimovning hikoyalarida o'ziga xoslik.
5. O'zbek adabiyotida hajviy hikoyalar
6. Hikoyachilikda noan'anaviylik(X. Do'stmuhammad hikoyalari misolida)
7."Sariq matbuot"da hikoyachilik
8. Hikoyachilikda syujet va kompozitsiya
9. Modernistik hikoyalar
10. Dedektiv hikoyalar
11.90- yillar hikoyachiligi xususiyatlari.
12. Jahon adabiyotida.
13. A. Qahhor novellalari tahlili
14. S. Ahmadning mustaqillik davri hikoyalari
15. S. Vafo hikoyalari
16. Ulug`bek Hamdam hkoyalari
17. N. Norqobilov hikoyalari poetikasi haqida
18. A. A'zam va O. Otaxon hikoyalari haqida
19. N. Eshonqul, I. Sulton, S. O'nar, E. A'zam hikoyalari tahlili
20. Hikoya janrinig adabiyotshunoslikda o'rganilishi haqida
21.O'zbek hikoyachiligining tarixiy ildizlari.
22. Ilk o'zbek realistik hikoyalari.
23. Janr tabiati va genezisi.
24.Hikoya janrida sujet va kompozisiya.
25.80-90-yillar o'zbek hikoyachiligida inson va tabiat tasviri.
26.Mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlaming mavzulari:

A. Qahhor "Adabiyot muallimi", "Dahshat" hikoyalari tahlili
Sh. Xolmirzayev "Ozodlik", "Bodom qishda gulladi" hikoyalari tahlili
G'. G'ulom "Hasan kayfiy" hikoyasi tahlili
A. Qodiriy "Uloqda" hikoyasi tahlili
S. Ahmad "Qorako'z Majnun" hikoyasi tahlili
A. Muxtor "Qora domla", "Ko'k tosh" hikoyalari tahlili
P. Qodirov "Jon shirin" hikoyasi tahlili
O. Yoqubov "Saqol" hikoyasi tahlili
O'.Hoshimov "Mahallaning onasi" hikoyasi tahlili
"XX asr o'zbek hikoyalari antologiyasi"dan mustaqil ish uchun hikoyalar tavsiya etiladi

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Glaballashuv davrida adabiyotning roli va vazifasi, hikoyalarning adabiy jarayondagi o'rni o'rni, adabiy jarayondagi o'zgarishlar, badiiylik mezonlari, badiiyat tarkibidagi o'ziga xos talqin xususiyatlari bilan bir qatorda, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik va jahon adabiyotidagi etakchi tamoyillarning adabiy tanqiddagi o'rni va vazifalarini, janrlar tarkibidagi poetik o'zgarishlarni o'rganish, mustaqil xulosalar chiqarish va tahlil etishdan iborat. Bu haqida tasavvurga ega bo'lishi; • Fanning predmeti, maqsad vazifalari va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini adabiy tanqiddagi o'zgarishlarni tahlil eta olish. • Istiqlol yillarida shakllangan badiiylik tarkibidagi o'zgarishlar, ungagi inson konsepsiyasining qo'yilishi, tur va janrlar o'rtasidagi sintizlashuv jarayonlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari lozim. • Bugungi adabiyotda kechayotgan jarayonlarni adabiy tanqidiy jihatdan nazardan o'tkaza olish, o'zbek adabiyotining bugungi holatini dunyo adabiyotidagi poetik o'zgarishlariga qiyoslash va ulardan xulosalar chiqara olish. • Bugungi kunda hikoyachilikda vujudga kelayotgan muammolar yechimi badiiy asarlani to'g'ri tahlil qilish tamoyillarini o'rganish va adabiy tanqidning o'rnini ko'rsata olish. Hozirda yozilayotgan badiiy asarlani tahlil qilish tamoyillarini o'rganish va hikoyalarning o'rnini ko'rsata olish.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • Ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Адабий турлар ва жанрлар. Биринчи жилд. –Т: "Фан", 1991. 384 б. 2. Toshpo'latov A. Novella janri. Monografiya. Samarqand. SamDU. 2014. 4. Аҳмедова. Ш. Адабиёт танқидчилиги жанрлари. -Т.: "Фан", 2006.

	5. XX asr o'zbek hikoyalari antologiyasi. T. O'zME. 2015. 6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. -Т.: "Ўзбекистон", 2002. 558 б. **Qo'shimcha adabiyotlar** 7. Аристотел. Поэтика. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 8. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. -Т.: "Ўзбекистон", 1993.1 9. Дўстмуҳаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. –Т.: "Mumtoz so'z" 2011. 10.Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. -Т.: "Маънавият", 2010. 390 б. 11.Жўраев Т. Онг оқими, модерн. -Ф.: "Фарғона" нашриёти, 2010. б- 12.Иброҳимов М. Ўзбек балладаси. -Т.: "Фан", 1974. б-312. 13.Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. -Т.: "Янги аср авлоди", 2006. 546 б. 14.Комилов Н. Тафаккур карвонлари. –Тошкент: "SHARQ", 2011. 319 б. 15.Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. –Т.: "Янги нашр", 2010. 263 б. 16.Мустақиллик даври адабиёти. -Т.: "Адабиёт ва санъат нашриёти", 287 б. 17.Мирвалиев С. Р. Шокирова. Ўзбек адиблари. -Т.: "Фан", 2007. 270 б. 18.Мухтаров Т. А. Новелла в классической арабской литературе. –Ташк "Ўзбекистон", 2002. стр. 190. 19. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. -Т.: "Маънавият", 2000. 110 20.Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. -Т.: "Университет", 2007. 171 б 21.Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. –Тошкент: "Чўлпон номидаги нашриё матбаа ижодий уйи", 2008. 95 б. 22.Норматов У. Ижод сеҳри. -Т.: Шарқ, 2007. 352 б. 23.Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилолари. -Т.: "Фан", 1991. 64 б. 24.Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. -Т.: "Шарқ", 2007. 335 б. 25.Султон И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1980. 392 б 26.Сойимов Б. Улуғ ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятл –Т.: "Фан", 1984. 256 б. 27.Содиқ С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. -Т.: "Шарқ", 2005. 319 б. 28.Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. -Т.: 2004. б-128. **Internet saytlari** http://www.ziyonet.uz/ http://www.adabiyot.uz/
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy кengashining 2021-yil 26-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul**: A.H.Toshpo'latov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
9.	**Taqrizchilar:**

	I.Sulaymonov - SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (ichki) G.Umurova – SamDCHTI dotsenti, filologiya fanlari doktori (tashqi)